Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 811.111
FILOLOGIYA

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA "SOG'INCH" KONSEPTINING FRAZEOLOGIK VA PAREMIOLOGIK IFODASI

Maftuna Oxunjon qizi Ahmadjonova*
Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
✉ sulaymonovamaftun@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillarida "sog'inch" konseptining frazeologik hamda paremiologik vositalar orqali ifodalanishi qiyosiy-kognitiv nuqtayi nazardan tadqiq etilgan. Tadqiqotning maqsadi ikki tilda sog'inch konseptining milliy-madaniy va lingvokognitiv xususiyatlarini frazeologik birliklar hamda maqol va matallar asosida aniqlashdan iborat. Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, komponent tahlil, konseptual tahlil, lingvomadaniy va kognitiv tahlil metodlaridan foydalanildi. Tahlil natijasida o'zbek tilida sog'inch konsepti kutish, diydor, yor, vatan, uy, vaqt va ruhiy kechinmalar bilan bog'liq yagona konseptual markaz atrofida shakllanishi, ingliz tilida esa longing, yearning, nostalgia va homesickness kabi alohida konseptual birliklar orqali ifodalanishi aniqlandi. Frazeologik va paremiologik birliklar beshta asosiy kognitiv maydon – kutish, diydor, makon, xotira va ruhiy og'riq asosida tizimlashtirildi. Tadqiqot natijalari emotsional konseptlarni qiyosiy o'rganish, frazeologiya, paremiologiya, kognitiv va lingvomadaniy tadqiqotlar uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar

sog'inch konsepti, frazeologiya, paremiologiya, kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyat, qiyosiy tahlil, emotsional konsept, longing, nostalgia, homesickness.

DOI: 10.5281/zenodo.21743595

KIRISH

Globallashuv sharoitida til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni o'rganish zamonaviy tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi [3; 15]. Ayniqsa, insonning hissiy tajribasini ifodalovchi emotsional konseptlar turli tillarning milliy-madaniy xususiyatlarini ochib berishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Shunday konseptlardan biri "sog'inch" konsepti bo'lib, u insonning ayriliq, kutish, visol istagi, xotira va ruhiy kechinmalarini mujassamlashtiruvchi murakkab kognitiv hamda lingvomadaniy hodisa hisoblanadi [2; 40].

Tilshunoslikda konseptning mazmuni faqat alohida leksik birliklar orqali emas, balki frazeologik birliklar, maqollar, matallar, aforizmlar va boshqa paremiologik vositalar orqali ham namoyon bo'lishi e'tirof etilgan [7; 23]. Chunki aynan turg'un birliklarda xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi, milliy qadriyatlari hamda baholash mezonlari mujassamlashadi. Shu sababli frazeologik va paremiologik qatlamni tahlil qilish konseptning lingvomadaniy mohiyatini chuqurroq yoritish imkonini beradi.

O'zbek tilida sog'inch ko'pincha diydor, visol, hijron, musofirlik, yurt va yaqin insonlarga bo'lgan mehr bilan bog'liq holda ifodalanadi. Ingliz tilida esa ushbu mazmun yagona konsept doirasida emas, balki *longing, yearning, nostalgia, homesickness* kabi bir nechta semantik markazlar orqali verbalizatsiyalanadi. Mazkur holat ikki tilning emotsional konseptlarni konseptuallashtirish usullaridagi farqlarni yaqqol namoyon etadi.

Mavzu yuzasidan ayrim ilmiy tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da, ularda asosan leksik yoki kognitiv jihatlar yoritilgan [2; 59; 3; 91]. Frazeologik va paremiologik birliklar asosida o'zbek hamda ingliz tillaridagi "sog'inch" konseptining qiyosiy lingvomadaniy tavsifi maxsus tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada o'rganilmagan.

Ayniqsa, sog‘inchning kutish, diydor, musofirlik, vatan, yor, vaqt va xotira kabi konseptual modellar orqali ifodalanishi hamda ularning milliy-madaniy xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish dolzarb ilmiy masalalardan biridir.

Konsept nazariyasi kognitiv tilshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, uning nazariy asoslari Sergey Askoldov, Zinaida Popova va Iosif Sternin tomonidan ishlab chiqilgan. Mazkur olimlar konseptni inson ongida shakllanadigan va til vositasida namoyon bo‘ladigan murakkab kognitiv birlik sifatida izohlaydilar [2; 39]. Lingvomadaniy yo‘nalishda Vladimir Karasik konseptni milliy madaniyat va qadriyatlar bilan uzviy bog‘liq hodisa sifatida tavsiflaydi.

Emotsional konseptlarni tadqiq etishda Jorj Lakoff va Mark Jonson tomonidan yaratilgan konseptual metafora nazariyasi muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu nazariya abstrakt hissiyotlarning inson tajribasida shakllangan konkret obrazlar orqali anglanishini asoslaydi. Zoltan Keveches emotsiyalarni ifodalovchi metaforik modellarni tizimlashtirib, ularning tanaviy tajriba va madaniy omillar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Frazeologik va paremiologik birliklarni o‘rganishda Alexander Kunin, Wolfgang Mieder hamda Archer Taylorning ilmiy qarashlari nazariy asos sifatida xizmat qildi. O‘zbek tilshunosligida esa Shavkat Rahmatullayevning O‘zbek tili frazeologik lug‘ati, Husan Berdiyorov va Rasul Rasulovning “O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati”, shuningdek, Shukrullo Shomaqsudov hamda Shorahmed Shorahmedov tomonidan tuzilgan “Hikmatnoma” tadqiqotning asosiy manbalari sifatida foydalanildi.

Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, emotsional konseptlar ko‘plab tadqiqotlarda leksik-semantik yoki poetik jihatdan yoritilgan [2; 60; 5; 111]. Biroq “sog‘inch” konseptining o‘zbek va ingliz tillaridagi frazeologik hamda paremiologik ifodasi qiyosiy lingvomadaniy nuqtayi nazardan alohida tadqiq etilmagan. Mazkur maqola aynan shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

O‘zbek va ingliz tillarida “sog‘inch” konseptining frazeologik hamda paremiologik vositalar orqali verbalizatsiyasi umumiy semantik asosga ega bo‘lsa-da, ularning konseptual tuzilishi va lingvomadaniy mazmunida muhim tafovutlar mavjudligini ko‘rsatdi. “Sog‘inch: konseptining asosiy frazeologik mikromaydonlari kutish va intizorlik, diydor va visol, ichki iztirob, musofirlik va vatan, yor sog‘inchi, vaqt hamda xotira kabi guruhlarga ajratildi.

Frazeologik birliklarning semantik tahlili shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek tilida sog‘inish ko‘proq kutish jarayoni orqali konseptuallashtiriladi. *Ikki ko‘zi to‘rt bo‘lmoq, ko‘zini to‘rt qilmoq, yo‘lini poylamoq, yo‘l qaramoq, ko‘zi yo‘lda qolmoq, intizor bo‘lmoq* kabi frazeologik birliklar sog‘inishni uzoq davom etadigan kutish va visol istagi bilan bog‘laydi. Masalan, *“Onasi o‘g‘lini kutib ikki ko‘zi to‘rt bo‘ldi”* jumlasida sog‘inish vaqtning cho‘zilishi va uchrashuvga bo‘lgan kuchli ehtiyoj orqali ifodalanadi. Ingliz tilida mazkur mazmunga *long for somebody, yearn for somebody, pine for somebody, look forward to seeing somebody, count the days* kabi birliklar mos keladi. Masalan, *She was pining for her family* jumlasida sog‘inish uzoq davom etuvchi ruhiy ehtiyoj sifatida namoyon bo‘ladi.

Ikkinchi semantik guruh diydor va visol bilan bog‘liq birliklarni qamrab oladi. O‘zbek tilida *diydoriga zor bo‘lmoq, diydor ko‘rishmoq, diydor g‘animat, gul bahona, diydor g‘animat, visolga yetmoq, yuz ko‘rishmoq* kabi birliklar sog‘inishning yakuniy bosqichi uchrashuv va visolni ifodalaydi. Ushbu birliklarda sog‘inish oddiy hissiy holat emas, balki insoniy munosabatlarning qadri bilan bog‘liq madaniy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Ingliz tilida *reunion, be reunited, meet again, see each other again* birliklari mazkur mazmunga yaqin bo‘lsa-da, ular o‘zbek tilidagi diydor konseptining semantik va madaniy yuklamasini to‘liq qamrab olmaydi.

Sog‘inishning affektiv jihati o‘zbek tilida somatik obrazlar orqali ifodalanadi. *Bag‘ri ezilmoq, jigar-bag‘ri ezilmoq, yuragi ezilmoq, bag‘ri teshilmoq, yuragi o‘rtanmoq* kabi iboralar emotsional og‘riqni inson tanasi bilan bog‘laydi. Ingliz tilida esa *broken heart, heartache, aching heart, feel blue, low in spirits* kabi birliklar qo‘llanadi. Har ikki tilda sog‘inish salbiy emotsional tajriba sifatida talqin qilinsa-da, o‘zbek frazeologiyasida tanaviy obrazlarning faolligi ancha yuqori ekanligi kuzatildi.

Paremiologik materiallar tahlili ham muhim natijalarni berdi. O‘zbek maqollarida sog‘inish, avvalo, *vatan va tug‘ilgan yurt* bilan bog‘liq qadriyat sifatida baholanadi.

“O‘z yurtingning qadri o‘zga yurtda bilinear”,

“Kishi yurtida shoh bo‘lguncha, o‘z yurtingda gado bo‘l”,

“O‘z yurting – o‘lan to‘shaging, o‘zga yurt bo‘lmas beshiging”,
“Bulbul chamanni sevar, odam Vatanni”,
“Tug‘ilgan yerdan ko‘ngil uzilmas”,
“Tuqqan elga qon tortadi”,
“Elidan ayrilgan yetti yil yig‘lar”,
kabi maqollar sog‘inishni shaxsiy hissiyot emas, balki milliy qadriyat darajasiga ko‘taradi.

Yor sog‘inchi bilan bog‘liq paremiyalar ham o‘zbek tilida keng uchraydi. *“Yorning qadri ayriliqda bilinadi”, “Ayriliq azobi o‘limdan qattiq”, “Sabr qilgan visol topar” “Yorning qadri ayriliqda bilinadi”, “Ayriliq azobi o‘limdan qattiq”,* kabi maqollar ayriliq va visolning o‘zaro bog‘liqligini ifodalaydi. Ushbu birliklarda sog‘inish muhabbatning tabiiy davomi sifatida talqin qilinadi.

Ingliz paremiologiyasida esa
There is no place like home,
East or West, home is best,
Home is where the heart is,
Every bird likes its own nest,
The wider we roam, the welcomer home kabi maqollar ustunlik qiladi. Mazkur paremiyalarda sog‘inishning markazida home konsepti turadi. Bundan tashqari, *Absence makes the heart grow fonder* maqoli ayriliq hissiyotlarni kuchaytirishini anglatsa, *Out of sight, out of mind* maqoli uzoqlik natijasida hissiy aloqaning susayishi mumkinligini ifodalaydi. Ushbu qarama-qarshilik ingliz paremiologiyasining emotsional tajribani turli nuqtai nazardan baholashini ko‘rsatadi.

Qiyosiy tahlil natijasida o‘zbek tilida “sog‘inch” konsepti yagona semantik markaz atrofida shakllanishi aniqlandi. *Kutish, diydor, hijron, musofirlik, yor, vatan* va *xotira* mazmunlari bitta konsept doirasida birlashadi. Ingliz tilida esa ushbu semantik maydon longing, yearning, nostalgia va homesickness kabi alohida konseptual birliklarga bo‘linadi. Demak, o‘zbek tilida “sog‘inch” konsepti kontsentrik konseptual model, ingliz tilida esa klasterlashgan konseptual model asosida tashkil topgan.

Olingan natijalar frazeologik va paremiologik birliklar emotsional konseptlarning milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlashda muhim lingvistik manba ekanligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, o‘zbek tilida diydor, visol, yurt, yor, bag‘ir, ko‘ngil kabi milliy-madaniy obrazlar “sog‘inch” konseptining mazmunini kengaytirsa, ingliz tilida *home, distance, absence va memory* birliklari konseptning asosiy semantik tayanchlarini tashkil etadi. Bu holat ikki xalqning hissiy tajribani til vositasida konseptuallashtirish usullaridagi o‘ziga xos xususiyatlarni yaqqol namoyon etadi.

XULOSA

Har ikki tilda sog‘inish hissi kutish, ayriliq va yaqinlikka intilish kabi umumiy semantik belgilarga ega bo‘lsa-da, uning til vositalarida ifodalanish usullari va lingvomadaniy mazmunida muhim tafovutlar mavjud. Qiyosiy tahlil natijasida o‘zbek tilida “sog‘inch” konsepti kutish, diydor, hijron, musofirlik, vatan, yor va xotira kabi semantik maydonlarni yagona konsept atrofida birlashtiruvchi kontsentrik tuzilishga ega ekanligi aniqlandi. Ingliz tilida esa alohida konseptual birliklarga taqsimlangan bo‘lib, ular emotsional tajribaning turli jihatlarini ifodalaydi.

Frazeologik birliklar tahlili o‘zbek tilida somatik va obrazli ifodalar ustun ekanligini ko‘rsatdi. Ingliz tilida esa bunday birliklar sog‘inishning turli ko‘rinishlarini ifodalashga xizmat qiladi. Paremiologik qatlamda esa o‘zbek tilida yurt, diydor va yaqin insonlarga sadoqat milliy qadriyat sifatida talqin qilinsa, ingliz tilida home konsepti va ayriliq tajribasi asosiy semantik markazni tashkil etishi aniqlandi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Аскольдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста: антология. – Москва: Academia, 1997. – С. 267–279.
2. Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. – Москва: АСТ: Восток–Запад, 2007. – 314 с.

3. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – 477 с.
4. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.
5. Kövecses Z. Metaphor and Emotion: Language, Culture, and Body in Human Feeling. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000. – 223 p.
6. Wierzbicka A. Emotions Across Languages and Cultures: Diversity and Universals. – Cambridge: Cambridge University Press, 1999. – 349 p.
7. Kunin A.V. Англо-русский фразеологический словарь. – Москва: Русский язык, 1984. – 944 с.
8. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 379 б.
9. Бердиёров Ҳ,. Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – 256 б.
10. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1990. – 528 б
11. Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологияси. – Тошкент: Фан, 1999. – 216 б.
12. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Sangzor, 2006. – 276 б.
13. Mahmudov N. Til va madaniyat. – Toshkent: Ma'naviyat, 2013. – 220 b.
14. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 3-jild. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – 412 b.